

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**International scientific-practical conference
XXI CENTURY SKILLS IN LANGUAGE
TEACHING AND LEARNING
April 24, 2020**

**ТИЛНИ ЎҚИТИШ ВА ЎРГАНИШДА XXI АСР КЎНИКМАЛАРИ
Халқаро илмий-амалий конференция
2020 йил, 24 Апрель**

**Международная научно-практическая конференция
НАВЫКИ XXI ВЕКА В ПРЕПОДАВАНИИ И ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА
24 Апреля, 2020 г**

ЖИЗЗАХ - 2020

TIL O‘ZLASHTIRISH JARAYONIDA BIXEVIORISTIK NAZARIYANING O‘RNI

Saidaxmedova Odinaxon Ibroximjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ona tili hamda ikkinchi tilni o‘zlashtirishda bixevioristik nazariyaning o‘rni haqida so‘z boradi. Bixevioristik nazariya asosini ko‘nikmalar tashkil qilishi hamda til o‘zlashtirish jarayonida ko‘nikmalarni ko‘chirish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *til o‘rganish, til o‘zlashtirish, bixevioristik nazariya, ko‘nikma, ijobiy transfer, salbiy transfer*

Til o‘zlashtirishda bixevioristik nazariya 1950 –1960-yillarda rivojlandi. Bu nazariya asosida insonning xatti-harakati, uning olamni idrok qilishi hamda qabul qilish o‘lchovi yotadi. Til o‘zlashtirish o‘rganishning boshqa turi hisoblanadi. Masalan, til o‘zlashtirish velosiped haydash yoki pianino chalishni o‘rganish jarayoniga o‘xshaydi, ya’ni “*habit formation* – odatning shakllanishi” sifatida qaraladi⁴⁶. Bixeviorist tadqiqotchilarga ko‘ra, bolalar ona tilini ota-onalaridan va tarbiyachilaridan taqlid orqali o‘zlashtiradilar va taqlidlariga ijobiy yoki salbiy javob oladilar⁴⁷. Ko‘nikma tushunchasi bu nazariyaning asosi hisoblanadi. Til boshqalar tomonidan qilingan so‘zlashuvda foydalaniladigan imo-ishora qarab nutqiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borish jarayonidir⁴⁸. Quyida shu haqida to‘xtalinadi:

Jek va Jil so‘qmoq bo‘ylab ketyapti. Jilning qorni och. U daraxtdagi olmani ko‘radi. U bo‘g‘iz, tili va lablari bilan tovush chiqaradi. Jek to‘siqdan sakrab o‘tib, daraxtga chiqib, Jilga olmani olib beradi. Jil olmani yeydi.

L. Blumfild bu jarayonni 3 qismga bo‘ladi:

1. Nutq paydo bo‘lishidan oldingi odatiy harakatlar: (ochlikni his qilish, olmani ko‘rish);
2. Nutq faoliyati (bo‘g‘iz, tili va lablar bilan tovush hosil qilish);
3. Tinglovchining javobi (reaksiyasi) – (Jekning to‘siqdan sakrab o‘tishi, olmani olishi, olmani Jilga berishi).

Shu tariqa, nutq bu muayyan motivatsiyaga reaksiya (javob) bo‘lib, bu nutq va harakat o‘rtasida bo‘g‘liqlik mavjudligini tavsiflaydi, biroq bu bola qanday qilib

⁴⁶ Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents. – P.10.

⁴⁷ Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press. –P.218.

⁴⁸ Bloomfield, L. (1933). Language. New York: Holt, Rinehart and Winston. –P.67.

harakatlanishni o'rganadi degani emas. Birinchi qadam bola eshitganlarining noaniq qaytarilishi bo'lsa ham, aslida bu bola tomonidan qayta ishlab chiqilgan bir xil tovushlardir. Bola nimagadir tovushiga o'xshash tovushni hosil qiladi deb faraz qilamiz. Tovushlar bolaning qulog'ida o'z holatini saqlagan holda harakatlanadi. Buning natijasi bolaning shunga o'xshash tovushni hosil qilishida kuzatiladi. Bu tovushlar silsilasi bolada xuddi shunga o'xshash tovushni hosil qilishga o'rgatadi⁴⁹.

Keyingi qadam bu stimulg'a shu til egasining javob (reaksiya) bildirishidir. Jarayon kimgadir, masalan bolaning onasiga bog'liq, ona bolaning g'uldurashiga o'xshash javob qaytaradi. Biz buni bola taqlid qilyapti deb izohlaymiz. Barcha tilda o'zining "ishchi" so'zlari mavjud bo'lib, hech ikkilanishlarsiz, bola bularni oson o'rganadi va qaytaradi, bu g'uldurashlar *mama, dada* kabi shaklida bo'ladi.

Blumfild faraziga ko'ra, stimul va reaksiya nima uchun onaning farzandiga birinchi marta "doll" deganini tushuntiradi. Ona qo'g'irchoqni ko'rsatib yoki bolaning qo'liga berib, uning nomini aytadi. Qo'g'irchoqni ko'rish va uni o'ynash uning nomini eshitish va nomini qaytarish bolada yangi odatni hosil qiladi: qo'qirchoqni ko'rsa va uni his qilsa, *da* deb ayta boshlaydi. U so'zdan foydalanadi. Kattalar buni so'z deb qabul qilmasliklari mumkin, biroq bu tugallanmagan so'z sifatida mavjud.

Blumfild bir stimulning yo'qolishi boshqa boshqa stimulning yaralishiga va unga bir xil reaksiya qaytariladi deb ishonadi: masalan, kun ora, bolani yuvintirgandan so'ng, shu paytda unga o'yinchog'i beriladi (*da, da* deb aytadi). Bolada yuvinganidan so'ng *da-da* deb aytish odati paydo bo'ladi. Biror kuni ona unga yuvingandan so'ng o'yinchoqni berishni unutsa, u yuvingach *da-da* deb yig'lashi mumkin. Ona bolaning o'yinchog'ini so'rayotganini biladi. Shubhasiz, hozirgacha kattalarning nimadir so'rashi yoki xohlashi shunday holatning murakkablashgan turidir⁵⁰.

Bola stimul-reaksiya aloqadorlikda gapirishni o'rganadi. Bolaning narsa-buyumni ko'rganda (masalan, o'yinchoq) (stimul), buni so'z bilan ifodalashi (reaksiya) shunday aloqadorlikka misoldir. Boshqa aloqadorlik buning aksi, ya'ni bola o'yinchoq so'zini eshitsa (stimul), o'yinchoqni qo'lga oladi (reaksiya). Shu tariqa, o'rganish stimul-reaksiya assotsiyatsiyada odatlarni shakllantirishdan iborat.

Bixevioristik nazariyaga ko'ra, ikkinchi tilni o'rganish taqlid qilish va taqlidni mustahkamlash jarayoni bo'lib, til o'rganuvchilar yangi tilni ko'chirish hamda eshitganlarini mashq qilish orqali o'zlashtiradilar. Bixevioristik modeldagi asosiy strategiya bu – formal ikkinchi til ta'limidir.

⁴⁹ Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Holt, Rinehart and Winston. –P.68.

⁵⁰ Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Holt, Rinehart and Winston. –P.68.

“Ko‘chirish” (transfer) bixevioristik nazariyadagi muhim tushuncha⁵¹ bo‘lib, ona tili ikkinchi tilni o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatadi. Til o‘rganuvchilar tovushlarni, strukturalarni ko‘chiradilar. Ikki til orasidagi o‘xshashliklar “ijobiy ko‘chirish”⁵² (sodda transfer)ga sabab bo‘ladi, ya’ni o‘rganuvchining ona tilisi ikkinchi tilning osonroq o‘zlashtirishiga ta’sir qiladi. Masalan, nemis va ingliz tillarida ba’zi umumiyliklar va so‘z tartibi ingliz tilidan nemis tiliga ko‘chirishning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlaydi yoki italyan tilini o‘rganayotgan ispaniyalik so‘roq gapni to‘g‘ri tuzadi: *Mangia bene il bambino?* (Chaqaloq yaxshi ovqatlanadimi?), chunki ispan tilida ham so‘roq gap shunday tuziladi: *Come bien el niño?* (Chaqaloq yaxshi ovqatlanadimi?).

Farqlar esa “salbiy ko‘chirish” (murakkab transfer)ga sabab bo‘ladi, salbiy ko‘chirish *interferensiya* (to‘siq) ham deyiladi, ona tili ko‘nikmalari ikkinchi tilni o‘rganuvchida yanglishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilida artikllar yo‘q, shuning uchun ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbek o‘rganuvchilarda ingliz tilida artikllarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolar og‘zaki va yozma nutqda kuzatiladi yoki ispan til o‘rganuvchisi ingliz tilini o‘rganayotgan bo‘lsa, u so‘roq gapni noto‘g‘ri tuzadi: *Eats well the baby?*, sababi ingliz tilida so‘roq gaplar ispan tilidagidek strukturada eams. Bu salbiy transfer sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlarda interferensiyaning ikki turi qayd etilgan: (a) *retroaktiv cheklanganlik* – o‘qish faoliyati avval o‘rganilgan materialga qaytadi, nimanidir unutishga sabachi bo‘ladi (tilni yo‘qotish); va (b) *proaktiv cheklanganlik* – bir qancha reaksiyalar o‘zlashtirilgan va yangisiga ehtiyoj seziladi. Bu jarayonlar ikkinchi tilni o‘zlashtirishda kuzatiladi, chunki ona tili ikkinchi tilni o‘zlashtirishga ta’sir qiladi / xalaqit qiladi / o‘zgartiradi.

Bixevioristik nazariya bolaning ona tilini o‘zlashtirish jarayonidagi o‘shishni tushuntirmagan, bu nazariya faqatgina ikkinchi tilni o‘zlashtirishning bir qisminigina tushuntirib bera oldi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents.
2. Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.
3. Crystal, D. (1997). The Cambridge encyclopedia of language. New York, NY: Cambridge University Press.
4. Muriel Saviile-Troike. (2006) Introducing Second Language Acquisition. Cambridge University Press The Edinburgh Building, Cambridge, UK.

⁵¹ Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents. – P.14.

⁵² Crystal, D. (1997). The Cambridge encyclopedia of language. New York, NY: Cambridge University Press. – P.23.

II. ТИЛ ТАДҚИҚИДА ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАР	
<i>Анорбоев А., LANGUAGE AND SPEECH</i>	141
<i>Fayzullayeva A.S. Eshqobilova M.U., STYLISTIC PROBLEMS OF LITERARY TRANSLATION FROM ENGLISH INTO UZBEK (TRADITIONAL NUMBERS AND PHRASEOLOGICAL UNITS)</i>	145
<i>Ganiyeva G., DEFINITIONS OF TOPONYMS AND THE FUNCTIONS OF THEM</i>	148
<i>Eshankulov Sh., STUDY OF POLYSEMY WITH CORPUS METHODOLOGY IN COGNITIVE LINGUISTICS</i>	151
<i>Холдорова Ш., СИРОЖИДДИН САЙИД ШЕЪРИЯТИДА ТАКРОРНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ</i>	155
<i>Уразбаев Ҳ., ТИЛ ПОРТФОЛИОСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШГА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ ВОСИТАСИ СИФАТИДА</i>	159
<i>Киличов Н., Каримова Д., ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА ЎТИР= ФЕЪЛИ СЕМАЛАРИ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ (Ўзбек, қорақалпоқ, туркман тиллари мисолида)</i>	161
<i>Валиева (Нугманходжаева) Г.Ф., ОТОЖДЕСТВЛЕНИЕ ОСНОВНЫХ ТИПОВ КОМПАРАТИВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ</i>	164
<i>Тожибоев М., БАДИЙ АСАР ПОЭТИК ТАҲЛИЛИДА СЎЗНИНГ МАЪНО СТРУКТУРАСИ ВА БАДИЙ ТИЛ МУНОСАБАТЛАРИНИ ЎРГАНИШ</i>	167
<i>Халилова Э., Нурмухамедова Д.Ф., ПРИМЕНЕНИЕ НОВОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ОРФОГРАФИИ</i>	171
<i>Мавланова Н.С., Ҳамраев О. М., “СПОРТ” ТЕМАТИК ГУРУҲИНИ ОНОМАСИОЛОГИК АСПЕКТДА ЎРГАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ХУСУСИДА.</i>	177
<i>Abduraxmanov S., Abduraxmanova K., NEMIS TILIDA LEKSIK DERIVATSIYALARNING SO‘Z BOYLIGINI YARATISHDA TUTGAN O‘RNI.</i>	181
<i>Анорбоева И., Эсонбоева Н., ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИЗУЧЕНИЯ ГЛАГОЛОВ ЗРИТЕЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ.</i>	183
<i>Bazarov S., NORMUROD NORQOBILOV NI KOYALARIDA BOLA RUHIYATI VA TABIAT TALQINI</i>	186
<i>Ergasheva F., OYBEKNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI</i>	189
<i>Habibullayeva M., Ibragimov Sh., LINGVISTIK GEOGRAFIYA – TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA</i>	191
<i>Ismailova G., INGLIZ TILIDA KON‘YUNKTIV FUNKSIONAL-SEMANTIK KATEGORIYASINING IFODA SHAKLLARI VA ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA QO‘LLANISHI.</i>	195
<i>Кулбаева С., Жалилова А., ПРИНЦИПЫ НАПИСАНИЯ ИНОСТРАННЫХ СЛОВ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ</i>	199
<i>Saidaxmedova O., TIL O‘ZLASHTIRISH JARAYONIDA BIXEVIORISTIK NAZARIYANING O‘RNI</i>	202
<i>Sh.U. Khalikova., A.M.Talipova., CRITERIA OF SYNONYMY</i>	205
<i>Kholmurodova O., THE WAYS OF DEPICTING THE EMOTIONAL CATEGORY OF FEAR IN CUMULATIVE FAIRY TALES.</i>	207